



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N.J.Eshnaev¹

Ataxo'jaeva Shaxlo Anvarovna²

¹ TVCHDPI Psixologiya kafedrası dotsenti

² TVCHDPI Pedagogika fakulteti 1 kurs magistranti

TAL'IMDA DISKRIMINATSIYAVA UNING OQIBATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi mavjud diskriminatsion yondashv va uning ta'lim oluvchilarga ta'sir etuvchi salbiy psixologik jihatlar, jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni keltirib chiqaruvchi omillardan ekanligi hamda uni bartaraf etish yuzasidan ilmi yfikir-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, diskriminatsiya, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim muassasa, psixologik mexanizm, ta'sir doirasi, jamiyat.

Аннотация: В этой статье обсуждается нынешний дискриминационный подход к системе образования и его негативные психологические аспекты, влияющие на учащихся, тот факт, что он является одним из факторов, вызывающих существующие проблемы в обществе, и способы его преодоления.

Ключевые слова: образование, дискриминация, студент, учитель, образовательное учреждение, психологический механизм, сфера влияния, общество.

Annotation: This article discusses the current discriminatory approach to the education system and its negative psychological aspects that affect learners, the

fact that it is one of the factors that cause existing problems in society, and how to overcome it.

Keywords: *education, discrimination, student, teacher, educational institution, psychological mechanism, sphere of influence, society.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Barcha davrlarda bo'lgani kabi jamiyatning har bir bo'g'ini va sohasida sog'lom psixologik iqlim hukm suradi degan tushuncha noo'rin hisoblanadi. Sababi ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiruvchi manfaatlar qarama-qarshiligidan tashqari xolis va samimiy munosabatning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir. Aksariyat hollarda o'zaro munosabatda inson psixikasi va uning ta'sirchanligi hisobga olinmaydi. Oqibatda bizning xatti-harakatlarimiz va munosabatimizning psixologik travmalari, uning salbiy oqibatlari har doim e'tibordan chetda qolgan va qolmoqda. Bu kabi masalalarni bugungi kunda ilmiy tadqiq qilish, oldini olish va bartaraf etish mexanizmlari bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etishning dolzarbligi ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda biz tahlil etayotgan va ilmiy munosabat bildirayotgan mavzuning dolzarbligi hozirgi kunda jamiyat hayoti uchun ijtimoiy yechimini kutayotgan masalalardandir. Shaxslarning jamiyat hayotidagi faoliyati va o'zaro munosabatidagi an'anaviy asoslarni ba'zi jihatlarini chuqur tadqiq etishni yangicha yondashuvlar zarurligi, shuningdek, psixologik va ma'naviy ehtiyojlarga javob beradigan mobil va moslashuvchan munosabat mexanizmini talab qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ushbu tadqiq etiladgan diskriminatsion yondashuv ya'ni kamsitish va ajratish fuqarolarni huquq va erkinliklarini buzilishiga olib keladi, insonlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadi, turli shakllarda namoyon bo'ladi, xususan, o'qish va ishga qabul qilish paytida, ta'lim olish va mehnat faoliyati paytida namoyon bo'ladi va hokazo. 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida "Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni oshirishga

qaratilgan bo‘lishi kerak" – degan tartib va ilg‘or g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lib, kishilik jamiyatida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili va har bir insonning ta‘lim olish huquqini har bir davlat o‘z bosh qonunlari asosida mustahkamlash masalasi kiritilgan [1]. Bundan ko‘zlangan maqsad dunyoda kuchli fuqarolik jamiyatini qaror toptirishni barcha davlatlar o‘z oldilariga maqsad etib belgilashi lozimligini tushunish mumkin. Buning uchun eng avvalo, buni jamiyatda to‘liq amalga oshirish uchun har bir shaxs mas‘ul ekanligini anglagan holda ta‘lim va tarbiyaning mazmun nuqtai nazardan amalga oshirishlari lozim. Kishilik jamiyatida diskriminatsiya masalasida barcha sohalar o‘zining hayotiy va gumanitar faoliyatini, harakat va munosabatlarni insonparvarlik tamoyili asosida amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini ta‘limning ajralmas qismiga aylantirishi zarur. Ta‘lim tizimidagi kamsitishlar va ularga qarshi kurashish borasida BMT doirasida masalalar ko‘rilgan hamda maxsus hujjatlar qabul qilingan. BMT tomonidan 1960 yil 14 dekabrda qabul qilingan Konvensiyaning 1-moddasida "kamsitish" - bu " irqiga, rangiga, jinsiga, tiliga, diniga, siyosiy yoki ta‘lim sohasidagi munosabatlarning barham topishi yoki buzilishining maqsadi yoki ta‘siri bo‘lgan boshqa e‘tiqodlar, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holati yoki tug‘ilishi, ta‘lim olishi kabi masalalarida kamsitilishni oldini olish borasida so‘z yuritilgan....[2]. Ta‘kidlash lozimki ushbu Konventsiyada ta‘lim olish imkoniyati, ta‘lim darajasi va sifati hamda amalga oshirish shartlari aniq belgilangan. Shuningdek, diskriminatsiyani yo‘q qilish yoki oldini olish uchun BMTga a‘zo davlatlarning zimmlariga bir qator vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular:

- barcha ma‘muriy buyruqlarni bekor qilish va ta‘lim sohasidagi kamsituvchi ma‘muriy amaliyotlarni tugatish;

- o‘quvchilarni ta‘lim muassasalariga qabul qilish jarayonida mavjud kamsitishlarni bartaraf etish va bu borada zarur choralarni ko‘rish;

- davlat ma‘muriyati tomonidan ma‘lum bir mamlakat fuqarosi bo‘lgan ta‘lim oluvchilarga o‘quv to‘lovlari, stipendiya va boshqa har qanday yordamni teng huquqliligini ta‘minlash;

- ta'lim oluvchilarga zarur bo'lgan ruxsat va imtiyozlar bo'yicha munosabatda farqlanishiga yo'l qo'ymaslik;

- ta'limdagi muvaffaqiyati va ehtiyojlaridan qat'iy nazar chet elda o'qishni davom ettirishga mavjud huquqiy shart-sharoitlarni yaratib berish va hokazo[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Tadqiqotchi I.Ya.Kiselevning diskriminatsion yondashuv haqidagi ilmiy mulohazalari ahamiyatli bo'lib u bu borada shunday deydi –diskriminatsiya mehnat faoliyatni olib boruvchilarning insoniy qadr-qimmatini kamsitadi, ularning ongini buzadi, mehnat munosabatlari sohasida keskinlikni keltirib chiqaradi, ayrim guruhlarining boshqalarga nisbatan dushmanligini oziqlantiradi, ijtimoiy sog'lom munosabatlarning talab va tartib qoidalariga mos kelmaydi hatto dunyo miqyosida beqarorlikni yuzaga keltirishi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdidir[3]. Diskriminatsion yondashuv jamiyatning barcha sohalariga daxildor bo'lib, bu masalani ilmiy nuqtai nazardan dinamik jarayonlarini tadqiq etib borish maqsadga muvofiqdir. Jumladan ta'lim sohasida ham bu masalani har tomonlama va chuqur tadqiq etish lozim. Ta'limda kamsitilishni oldini olish uchun o'qituvchining o'zi, o'z sohasi bo'yicha professional bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi shart. Bu borada ilmiy qarash va nazariy fikrlarni ilgari surgan tadqiqotchi S.S.Mutsinov quyidagi fikr – mulohazalarni ilgari suradi: O'qituvchining kasbiy mahorati- nafaqat umumiy pedagogik madaniyat bilan, balki didaktik, kommunikativ, hissiy qobiliyatlarni shakllantirish hamda ijodiy salohiyatni rivojlantirish darajasi bilan ham belgilanadi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar doimiy ravishda kasbiy bilimlarini, malakalarini oshirib borishlari hamda ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishlari shart. Shuningdek, har bir professor - o'qituvchi yukasak psixologik-pedagogik bilim va pedagogik mahoratga ega bo'lishi, tanqidiy tahlil va kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishi hamda pedagogik madaniyat sohibi bo'lishi lozim[4].

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ta’lim jarayonida har bir ishtirokchi (o’qituvchi, o’quvchi, talaba) o’zini munosib tutishi, jamiyatning ziyoli qatlamiga daxildorligini his etishi, boshqalarga ibrat bo’lishi, ichki tartib intizom, odob-axloq qoidalari va qonunlarga bo’ysunishi lozim. Mana shu tartib qoidalarni esdan chiqarishi yoki amal qilmasligi ta’lim tizimida mavjud konfliktli diskriminatsion vaziyatni yuzaga keltiradigan omillardan biri hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning ayrim ta’lim tizimida to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita ta’lim sohasidagi diskriminatsion holatlarni kuzatish mumkin. Bu jarayon yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va mutaxassis kadrlarni tayyorlash sifatini tushirishga xizmat qiladigan ijtimoiy psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu kabi muammolarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va o’z vaqtida bartaraf etish zarur. Ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy ilmiy uslublarini, shuningdek, texnik o’quv qo’llanmalarini ishlab chiqish, faol joriy etish, o’qituvchilar etikasini oshirish va bag’rikenglik tomoyilini ta’lim tizimida faoliyat olib boruvchi barcha soha mutaxassislarining kasbiy kompetentligiga aylantirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION / RECOMMENDATIONS)

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak ta’lim oluvchilardan yuqori darajadagi tartib-intizom, burchga sadoqat va mas’uliyatni anglagan holda o’qish, o’quv topshiriqlarini vijdonan bajarishiga oid talablarni oshirish maqsadga muvofiqdir. Jamiyatimiz ta’lim tizimida diskriminatsion yondashuvni bartaraf etish quyidagilarni amalga oshirilishini taqozo etadi:

- ta’lim tizimida “noto’liq oila farzandi”, “muammoli oila farzandi”, “ichki ro’yxatga olingan” kabi ma’lumotlarni (ba’zi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchilardan toritib ta’lim olayotgan barcha o’quvchilar uchun bu ma’lumot ochiq) vakolatli doiradagi shaxs va tashkilotlar doirasida ma’ulm qilinishi;

- barcha ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning o’qishi bo’yicha qonuniy majburiyati hamda ma’naviy burchini bajarilishini ta’minlash;

- barcha ta'lim muassasalarida teng darajada yuqori ta'limni va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni ta'minlash;
- o'qituvchilik kasbini kamsitish va uning faoliyatiga qonundan tashqari holda aralashuvni amalga oshirilishiga qat'iyanoq yo'l qo'ymaslik;
- ta'lim oluvchi (maktablarda) o'qituvchining ta'lim berishi va o'quv jarayonga xalaqit qilganligi uchun qonun doirasida choralar ko'rishni real tartibda amalga oshirish;
- ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarni maqsadli malakasini oshirish, ilmiy va pedagogik ishlarni amalga oshirishda adolatli yondashuv hamda darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishi uchun bo'sh vaqtlarni tashkil etish;
- barcha ta'lim tizimlari o'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarni (kompyuter texnologiyalari va boshqa elektron jihozlar) to'liq va ehtiyoji doirasida joriy etish;
- ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni adolatli amalga oshirish;
- ta'lim tizimida zamonaviy kadrlar tayyorlash bilan bog'liq o'quv-uslubiy dastur va g'oya mualliflarini rag'batlantirib o'zlariga rahbarlikni topshirish hamda motivatsiya berish;
- ta'lim-tarbiya bilan bog'liq zamonamizning dolzarb muammolarini yoritib berish va ularni bartaraf etish borasida amalga oshirayotgan ilmiy loyihalarni rag'batlantirib borishning adolatli mezonini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etish;
- professor-o'qituvchilar uchun ta'limni samarali tashkil etish va professional kasbiy vazifalarni bajarish uchun imkon qadar qulay sharoitlarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Деменева Н.А. Дискриминация в образовании: вопросы теории и практики // Materiály X mezinárodní vědeckopraktická konference «Věda a vznik-

2013/2014». – Díl 15. Právní vědy.: Praha. Publishing House «Education and Science». – С. 3–7.

2. Деменева Н.А. Защита от дискриминации в сфере труда: проблемы теории. Монография: В 2-х ч. Ч. 2. – Новосибирск: Экор-Книга, 2015. – 272 с.

3. Киселев И.Я. Сравнительное и международное трудовое право: Учебник для вузов. – М.: Дело, 1999.

4. Барабанщиков А.В. Педагогическая культура преподавателя высшей военной школы / А.В. Барабанщиков, С.С. Муцынов. – М.: Военно-политическая академия, 1985/.

5. Usarov J. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

6. Usarov J. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.

7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.

8. Usarov Djabbar Eshkulovich & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.

9. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) [Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology](#). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.

10. Eshnaev N.J., Maratov T.G'., G Mirzaraximova. (2020). [O'zbek milliy kino san'ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari](#). Oriental Art and Culture 03. 156-165.



11. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) “Problems of formation of learning motives in pupils”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6,

12. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. . (2020) “Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.

13. Nortoji Jumaevich Eshnaev. (2021). Ma’naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiqetishning o‘ziga xos jihatlari. ACADEMIC research in educational sciences. vol.2, no. 2. p. 364-369.